DOI

Turayev F.T.
Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz
pedagogika kolleji bo‘lim boshlig‘i

PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LIM BOSHLIG‘I FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya
Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan bo‘lim boshliqlarini funksional vazifalari pedagogik jihatdan tahlil qilib berildi. Shuningdek ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishda aynan ta’limning qaysi jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.
Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, yetakchi, rahbar, Yangi O‘zbekiston, uchinchi renessans, barkamol avdod, pedagogik qadriyat.

Turayev F.T.
Shakhrisabz, kashkadarya region
head of Department of the pedagogical college

POSSIBILITIES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE ACTIVITY OF THE HEAD OF THE DEPARTMENT IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annatation
In this article, the functional tasks of department heads operating in educational institutions were analyzed pedagogically. It was also scientifically justified which aspects of education should be paid more attention to in order to improve the effectiveness of the educational process in educational institutions.
Key words: Modern education, leader, leader, New Uzbekistan, the third renaissance, good reputation, pedagogical value.

Zamonaviy ta’limning boshqaruvchisi va rahbari albatta bu-o‘qituvchi hisoblanadi. Shu boisdan ham boshqaruvchi, rahbar so‘zining mazmun va mohiyatida, qadim-qadimdan “yetakchi” tushunchasi xalqimizda hurmat bilan tilga olinadi.

Ular xalqning to‘qligi, yurt farovonligi, ilm-u ma’rifati uchun, kecha-yu kunduz qayg‘urganlar.

Shuning uchun ham bo‘lsa kerak xalqimiz tasavvurida rahbar:

-xalqning yo‘lboshchisi, ham yetakchisi;

-hamma narsani biluvchi, hamma narsani ko‘ruvchi-rahnoma;

https://wordlyknowledge.uz

-rahbar xalqning “otasi”, uni tarbiyalovchi, g‘amxo‘rlik qiluvchi, parvarishlovchi, adolatli jazolovchisi deb hisoblangan.

Boshqaruvda, ayniqsa ta’limda eng nozik soha, ta’lim va tarbiya muassasasini boshqarishda ustoz milliy qadriyatlar, urf-odatlarni demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotning hozirgi bosqichida ta’lim tizimi, uning fan bilan uzviy, mustahkam aloqalari iqtisodiy o‘sishning muhim harakatlantiruvchi kuchini belgilab berishi bilan birga, iqtisodiyotning raqobatbardosh bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. Bu, ayniqsa, xalqning milliy xavfsizligi va farovonligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ta’lim jamiyatni uyg‘un rivojlantirish, yagona ijtimoiy-madaniy hududni vujudga keltirish, shaxslar orasidagi ijtimoiy ziddiyatlar va milliy-etnik taranglik, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, turli dinlar va milliy madaniyatlar teng huquqliligini ta’minlashga qaratilishi lozim. Ko‘pmillatli O‘zbekiston jamiyati ta’lim tizimida ona tili sifatida o‘zbek tilining nufuzini kengaytirish, o‘zbek xalqiniing tafakkuri va tolerant dunyoqarashini boyitish sohasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish zaruriyati mavjud.

Bu borada kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan “bo‘lim boshliqlari”ni faoliyatlarini samarali tashkil etishda ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlarini yangi innovatsion loyihalar asosida tashkil qilinishini bugungi zamonaviy o‘zbek ta’lim tendensiyasi bilan bog‘lash har qachongidan muhimdir. Bu jarayonlarni tashkil qilishda ta’lim muassasalarida birinchi navbatda albatta darsliklar, o‘quv adabiyotlari faqat ta’lim-tarbiyaviy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy–siyosiy bilimlar manbaigina bo‘lib qolmay, u yoshlarni ma’naviy, ruhiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy, insoniy va boshqa jihatlarini tarbiyalashning qudratli omiliga aylanmog‘i lozim.

Hozirgi davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanish bosqichida, hamda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining joriy etilishida o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Darslik muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlar ilmiy ishlarida darslik turlicha ta’riflangan: «Darslik o‘quv materialini va u bilan ishlash metodikasini tavsiya etadi, hamda o‘qituvchiga o‘quv materialini o‘qitish va o‘rgatish, o‘quvchiga esa o‘rganish va o‘zlashtirish usullarini taqdim etadi.

Boshqacha qilib aytganda, darslikda ta’lim maqsadlari mazmun va metodlar ko‘rinishida mujassamlashtiriladi.

Haqiqat shuki, darsga qo‘yiladigan ko‘plab ta’lim talablarini bajarish va o‘quv materialini mustahkamlashda o‘qituvchi uchun darslik eng yaxshi yordamchi vosita hisoblanadi. Bunda albatta o‘quv jarayonlarini samaradorligini belgilashda bo‘lim boshliqlari ham ma’sul ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Chunki bo‘lim boshlig‘i bugun kasb-hunar borasidagi yangi bilimlar majmuini tahlillar asosida, tajribaviy yondoshuvlar asosida amalga oshirmog‘i muhimdir.

https://wordlyknowledge.uz

Sifatli darslikning har bir mavzusi o‘ziga xos yaxlit va to‘liq o‘quv materialini o‘zida qamrab oladi.

Bu borada V.P.Bespalkoning ta’kidlashicha: «Darslik – axborotli model bo‘lib, unda pedagogik tizimning quyidagi to‘rtta elementi; ya’ni o‘qitish maqsadlari, o‘qitish mazmuni, didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish, o‘qitish shakllarini tashkil qilish kabi jihatlar o‘z aksini topadi. Bunda darslik o‘quvchining imkoniyatini inobatga oluvchi o‘qitish vositalaridan biri hisoblanadi».

Shuningdek, «Darslik – bu o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanning ilmiy asoslarini o‘rgatish vositasidir. Darslikda qaysidir darajada o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi yoritiladi» yoki «Darslikni yaratish – bu o‘quv tarbiya jarayonini loyihalashtirishdir» deb hisoblaydilar. V.V. Kraevskiy va I.Ya.Lernerlar ilmiy adabiyotlarida «Darslik butun o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun xizmat qiladi», yoki «Darslikda nafaqat o‘quv chining faoliyati, bal’ki o‘qituvchining faoliyati ham dasturlashtirilgan» degan fikrlar keltirilgan.

Darslik – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi.

Darslikning harakterli xususiyati - bu uning mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Ta’limning maqsadi mustaqil jamiyatimiz ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo‘sha oladigan “Barkamol avlod”ni tarbiyalashdir. Chunki “Uchunchi renassans”ni tamal toshi aynan bog‘chadan, maktab va kasb-hunar maktabidan, kollejdan, texnikumdan va oliy o‘quv yurtidan boshlanadi. Bu kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodni bugungi ta’lim qadriyatlari bilan qurollanishini talab etadi. Ta’limning vazifasi esa yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iboratdir. Bu esa ta’lim muassasalarida darslik o‘quv jarayonining o‘zagi va o‘quv predmetining modeli hisoblanishni anglatadi. Undagi yoritilgan bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullari davlat ta’lim standartida belgilangan minimumdir». Ushbu minimum darajasidagi kichik mutaxassislar tayyorgarligi esa ta’limning bahosi hisoblanadi.

Darslik o‘quvchilarning davlat standartida va o‘quv dasturida belgilab berilgan bilimlarni faol va ongli suratda o‘zlashtirishlari uchun mo‘ljallangan asosiy o‘quv kitobi hisoblanadi. To‘laqonli yaratilgan darslik axborot modelining majmuidan iborat bo‘lib, bu model pedagogik tizimning o‘qituvchi-darslik-o‘quv jarayoni-o‘quvchidan iborat to‘rt muhim tarkibiy qismini aks ettiradi va ularni amaliyotga tadbiq etishga imkon beradi.

Bunda darslik o‘qitishning texnik vositasi sifatida o‘quvchining, ya’ni o‘z iste’molchisining imkoniyatlarini hisobga olishi zarur bo‘ladi.

Darslik – bu o‘quvchida muayyan o‘quv fanining aniq mazmuniga ega bo‘lib qolmay, balki undan bilim olishni o‘rganish, o‘rganilgan bilimlarni umumiylashtirishni va ega bo‘lgan bilimlarni qancha to‘g‘ri ekanligini taqqoslashni va amaliy ko‘nikmalarda qo‘llashni o‘rgatadi. Darslikni o‘qituvchi

https://wordlyknowledge.uz

va o‘quvchining o‘zaro hamkorligi vositasi birligi sifatida tasavvur qilish kerak. Darslik o‘qitish vositasi majmuasining yadrosi hisoblanadi, qaysiki uni atrofida qolgan o‘quv vositalari guruhlashtiriladi.

Darsning maqsadi o‘qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o‘quvchilarga bildirish va o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirib ko‘rish hamda yangi mavzuga zamin yaratishdan iborat.

Shu o‘rinda fanlar bo‘yicha darsliklar yangi avlodini yaratish va baholashning ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqish kasb-hunar ta’limini isloh qilishdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi roli o‘zgarib bormoqda: u o‘quvchilar uchun bilim berishning asosiy vositasi funksiyasini bajarishi va ta’lim jarayonidagi faolligi pasayib bormoqda, u faqat o‘quv jarayonini tashkil etishda va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishlari uchun yordam beruvchi maslahatchi sifatida qatnashishi davr talabi bo‘lib qoldi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga xulosa tariqasida shuni ta’kidlash lozimki, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda o‘quv jarayonlarini tashkil qilishda bo‘lim boshliqlari shaxsiga bir necha salbiy omillar ta’sir etadi. Bunda:

1. Bo‘lim boshlig‘ining ish vaqtining chegaralanmaganligi, bu o‘z vaqtida o‘z lavozimidan kelib chiqib faoliyat samaradorligi yaxshi shakllanmaydi.

2. Ish jarayonida rahbar bilan bir qator konfilektli vaziyatlarni tez- kelib chiqishi.

3. Bo‘lim boshlig‘ining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini doimo saqlash va ravojlantirish uchun o‘quv dargohlarida hamma shart-sharoitlarni yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu borada ta’lim muassasasi rahbari quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish;
- ma’naviy boyish;
- muomala madaniyatini yuksak darajaga ko‘tarish;
- ezgu ideallar bilan mashg‘ul bo‘lish;
- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish;
- xodim madaniyati va ma’lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasining qay darajada rivojlanganlik darajasi yuqori bo‘lishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston kelajagining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Институт проф. образования, 1995. – 336 с.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun me’yoriy hujjatlar. - Toshkent. 2005 y

https://wordlyknowledge.uz